




QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 9475,3 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 103,9 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 9097,3 mlrd.so'mni (104,2 foiz), o'rmon xo'jaligida – 267,6 mlrd.so'mni (101,7 foiz), baliq xo'jaligida – 110,4 mlrd.so'mni (93,6 foiz) tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Tomdi (111,1 foiz), Uchquduq (110,2 foiz), Nurota (106,1 foiz), Karmana (103,6 foiz), Konimex (103,3 foiz), Qiziltepa (102,8 foiz) Zarafshon shahri (102,4 foiz) Xatirchi (102,1 foiz) Navbahor (101,8 foiz), hamda tumanlarida kuzatildi. Navoiy shahri (101,7 foiz) esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Xatirchi tumanining ulushi 21,7 foizni tashkil etdi va hududlar bo'yicha etakchilik qilmoqda, xuddi shunday, Navbahor tumani ravishda 16,4 foiz Qiziltepa tumani 16,2 foiz, va Konimex tumani (12,7 foiz), Karmana tumani 9,8 foiz, Nurota (9,7 foiz), ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Tomdi (8,0 foiz), Uchquduq (4,6 foiz), Navoiy va Zarafshon shaharlarida (0,6 va 0,1foiz) qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2018 yilning yanvar - dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2017 yilning mos davriga nisbatan 104,2 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 98,5 foizni, chorvachilik mahsulotlari – 108,4 foizni tashkil qildi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 77,5 foizi – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 19,4 foizi – fermer xo'jaliklariga, 3,1 foizi – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.


Dehqonchilik

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 3572,6 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 98,8 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 39,4 foizni tashkil qildi.



Hosilni yig'ib olish. 2018 yilning yanvar – dekabr oylarida 214,4 ming tonna (77,3 foiz) don, 76,9 ming tonna (100,9 foiz) kartoshka, 274,6 ming tonna (103,4 foiz) sabzavotlar, 88,1 ming tonna (107,3 foiz) poliz, 88,1 ming tonna (107,3 foiz) mevalar, 100,4 ming tonna (102,1 foiz) uzum 76,9 ming tonna (105,2 foiz) yig'ib olindi.

Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi



- Qishloq xojaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Fermer xo'jaliklari


Chorvachilik



2018 yilning yanvar - dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 5497,5 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 108,4 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 60,6 foizni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 159,7 ming tonna go'sht (2017 yilning yanvar-dekabrga nisbatan 7,6 foizga ko'p), 477,8 ming tonna sut (7,4 foizga ko'p), 276,6 mln.dona tuxum (8,9 foizga ko'p), 4,1 ming tonna jun (1,0 foizga ko'p), 261,5 ming dona qorako'l teri (5,1 foizga ko'p), 1,0 ming tonna asal (8,5 foizga ko'p), 11,6 ming tonna baliq (92,3 foizga) ishlab chiqarildi.


Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi




Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 92,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 94,6 foizi, tuxumning 72,7 foizi, junning 72,8 foizi, qorako'l terining 81,4 foizi, asalning 90,8 foizi, ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

mahsulotlarini hududlar kesimida taqsimlanishi


Go'sht (ming tonna)




Sut (ming tonna)





Tuxum (mln. dona)



Jun (tonna)




Qorako'l teri (ming dona)**Baliq (tonna)**

Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

2019 yilning 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni - 484,0 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 199,6 ming boshga, qo'y va echkilar 2060,3 ming boshga, otlar – 17,9 ming boshga, parrandalar 2595,2 ming boshga etdi.

2017 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 15,0 ming boshga (3,2 foizga), shu jumladan sigirlar – 12,0 ming boshga (6,4 foizga), qo'y va echkilar – 185,2 ming boshga (9,9 foizga), otlar – 1,3 ming boshga (7,6 foizga), parrandalar – 360,4 ming boshga (16,1 foizga) ko'paydi.

Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2019 yining 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,5 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 89,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 2,9 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 23,3 foizi fermer xo'jaliklariga, 63,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 13,1 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 33,3 foizi fermer xo'jaliklariga, 59,3 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 7,4 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, xuddi shuningdek parrandalar umumiy sonidan 11,5 foizi fermer xo'jaliklariga, 63,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 25,4 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'limi

0 371 230-84-43

0 371 230-84-44

0 436 223-23-40